

**1917-18 YILLARDA NASHR QILINGAN “TURK ELI” VA “TURK  
SO‘ZI” GAZETALARI TEMATIKASI**

**Sotvoldiyev Sirojiddin**

*O‘zJOKU o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadid matbuoti 1917-18 yillarda jamoatchilik e‘tiboriga olib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy mavzular ko‘lami “Turk eli” va “Turk so‘zi” gazetalarini materiallari asosida tahlil qilinadi. Gazetalarning publitsistik ruhi, tili va uslubini o‘rganish davr matbuotining umumiy qiyofasini jonlantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** jadidchilik, jadid matbuoti, “Turk so‘zi”, “Turk eli”, publitsistika, maqola, til va uslub.*

1917-18 yillar jadid matbuotida demokratik faoliyat kurtaklari ko‘zga tashlanadi. Chunki bu davr nashrlarida xalqimizni qiynab kelaётgan zulm, ma‘naviy-madaniy mahdudlikdan qutilish choralari va milliy taraqqiyotga erishish yo‘llari bayon etilgan publitsistik chiqishlar son jihatidan ko‘payadi. Ushbu davr jadid matbuoti nashrlari orasida “Turk eli” gazetasi alohida ajralib turadi.

Gazeta 1917-yilning 4-oktyabridan “Turon” va “Kengash” gazetalarini o‘rniga chop etila boshlagan. U Turkiston musulmonlar markaziy sho‘rosi va Turk adam markaziyat firqasining “nashri afkor”i edi. Muharrir o‘rniga “hay’ati tahririya” raxbarlik qilgan. Gazeta 4 sahifalik, mix bosmada chop etilgan. Adadi 800- 1000 atrofida bo‘lgan.

1-sondagi Shokirjon Rahimiyning “Yashasun qko‘shma xalq jumhuriyati” sarlavhali maqolasi gazetaning umumiy yo‘nalishini tushunishga yordam beradi. “Turkiston musulmonlarining markaziy sho‘rosi hamda Turk adam markaziyat firqasining maqsadi Turkistonda qo‘shma xalq jumhuriyatini barpo etishdir”, deyiladi maqolada. “O‘zining shonli moziyiga molik bo‘lgon

Turkiston ellik yil muddatda zolim hukumat va zolim ma‘murlarning inja zulmi bilan ko‘b ezilgan, hatto tamom ustaxoniga qadar ta’sir kilgan vahshat zaharlarini tilga olub aytmaqa ham ko‘rqar edi... Mana, sizga “Turk eli”!... O‘z gazetangiz. O‘qungiz, yashatingiz!”.

Publitsist tili va uslubi g‘oyat ta’sirchan, tantanavor ohangga kurilgan. Ayniqsa, “O‘z gazetangiz. O‘qungiz, yashatingiz!” da’vati pafos bilan yo‘g‘rilib, yanada mutaassir kiyofaga kirgan. Gazeta xodimlari mana shu bosh maqsad — qo‘shma xalq jumhuriyatini yuzaga keltirish uchun harakat qildi. Ta’sis majlisiga saylanadigan turkistonlik vakillarning asosiy vazifasi va burchini anglatishga intildi. Mazkur sonda Piriyning “Majlisi muassison (uchreditelniy sobraniya)” sarlavhali maqolasi bosilgan bo‘lib, unda Rossiyaning bo‘lajak davlat tuzumi qanday bo‘lishi, jumladan, Turkistonning istiqbolini hal etuvchi ta’sis majlisi nima ekani tushuntiriladi.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Gazetaning 1-sonada yana “Suyumbeka minorasidan qora qush (oryol)ni oluv” nomli voqeiy reportaj ham o‘rin olgan bo‘lib, Qozonda 2-3 soat kechgan marosim ipidan-ignasigacha hikoya qilinadi. “Qora qush”ni olishga kiritib udalay olmagan 3-4 askar nomi ham tuga olinadi. Muhimi, voqea juda dolzarb bo‘lib. Buni ko‘rib turgan xalq shodlanadi, yelkasidan mustabidlik yuki tushgandek yengli tortadi.

Gazeta Rossiyada, xususan Petrogradga bo‘layotgan siyosiy yangiliklardan mushtariylarini xabardor qilib turgan. Turkiston xabarlarini, xorijiy mamlakatlarda ro‘y berayotgan yangiliklarni, urush maydonidagi o‘zgarishlarni ham yoritib borgan. Umuman olganda, “Turk eli” o‘z sahifalarida Turkistonning istiqboliga oid materiallarga ko‘proq o‘rin bergan. Unda Muhammad Amin Afandizoda, Piri Mursalzoda kabi ozarboyjon millatiga mansub qalamkashlar bilan birga, Burhon Habib, Shokirjon Rahimiy, Rafiq Mo‘miniy kabi mahalliy xalq vakillari ham faol qatnashib turishgan.

Yana bir jadid gazetasi “Turk so‘zi” ham ilg‘or nashr sifatida 1917-18 yillar voqealar xronikasi bilan qadam-baqadam yurdi. Afsuski, gazetaning barcha sonlari hozirgacha saqlanib qolmagan. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning “Nodir manbalar” fondida saqlanayotgan 4-soni 1918-yilning 2-iyunida, yakshanba kuni chop etilgan (hijriy hisobda 22 sha‘bon, 1336-yil). Agar gazetaning haftada ikki marta chop etilganini hisobga olsak, birinchi soni taxminan 22-mayda chiqqan bo‘lishi mumkin. Har bir sonda obuna narxlari berib borilgan: 1 yil uchun – 34 so‘m, 6 oy uchun – 17 so‘m, 3 oy uchun – 9 so‘m. Gazeta haftaning yakshanba va chorshanba kunlari chiqishi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, har doim ham bu ko‘rsatkichga to‘liq rioya etilmagan. Manzili: Eski Toshkent, Shayxontohur dahasi, Said Ali xo‘ja eshon o‘g‘li boloxonasi.

Gazeta “shapka”sidagi “Maslagimizga muvofiq yozuvlarga sahifalarimiz ochiqdir. Darj etilmagan (chop etilmagan) maqolalar qaytarilmaydi” degan bitik tahririyat keng jamoatchilik bilan aloqa o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lganini tasdiqlaydi. Bahosi 40 tiyinni tashkil qilgan. Shiori: “Turk millatini siësiy, iqtisodiy va ilmiy qutqarub chin bir turk madaniyatini vujudga kelturmak”. Bu “siësiy, ijtimoiy, iqtisodiy va adabiy turk gazetasi” mushtariylarga qarata “Turk bolalari, birlashub siz ham hayotdan o‘z nasibangizni olingiz!” deya murojaat kiladi. Gazetaning 4-soni bosh sahifasiga muallifi “idorai tahririya” bo‘lgan “Ehtiëj” nomli bosh maqola joylashtirilgan. Maqolaning publitsistik tiliga e‘tibor berilsa, metaforlashtirish va istiora uslubi ko‘zga tashlanadi. Maqolaning asosiy maqsadi Turkiston xalqlari taraqqiy etishi uchun, avvalo, o‘z ehtiyoj doirasini belgilab olmog‘i zarurligini ko‘rsatishdir. Aks holda ehtiyojini anglab yetmagan millat “istar-istamasa mahv bo‘lub ketar”ini hayotning o‘zi

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ko‘rsatib turibdi. Bu haqiqatni tahririyat jamoasi o‘ziga xos pafos bilan mushtariylariga yetkazmoqda.

Maqola davomida davrning asosiy siësiy voqeliklari – Birinchi jahon urushi va millatlar o‘rtasidagi ichki nizolarga ham diqqat qaratiladi. So‘ng sekin-asta maqola mavzusi Turkiston xalqlari hayotiga buriladi. Uning o‘sha paytdagi achinarli ahvoli, tanazzuli ustidan yozg‘iriladi: “Endi insof ko‘zlarini kattaroq ochib o‘z holimizga karayluk: ko‘rib turdig‘imiz yuksalgan millatlarning qay biri yanglik kuchimiz bor? Inglizlar kabi tarbiya va sabotimizmi bor? Olmonlardek hunar va jur‘atimizmi bor? Rusiya singari g‘ayratmi ko‘rsatdik? Fransiya yanglig‘ falsafa va hikmatmi bildik? Eng so‘nggi ...shul yahudiy va armanlarga teng tijorat va birligimiz bormi? Yo‘q, yo‘q, yo‘q..!” Aytish kerakki, ritorik savollar vositasida o‘rtaga tashlangan bunday “hasbi hol” jadidlar uchun xos bo‘lib, o‘zlarining xar bir chiqishlarida o‘z ayanch ahvollaridan qayg‘urish orqali millat qiyofasini isloh etishga tirishishgan. Maqolada mazkur muammoni yechish yo‘li ilm-fan va madaniyatni ko‘tarish ekani kayd etiladi.

Shu sondan o‘rin olgan “Turklik jarayoni” maqolasi ham e‘tiborga munosib. Publitsist Muhammad Said bu maqolasida 1917-18 yillarda turk xalqlari boshiga tushgan kiyinchiliklarni bayon kilar ekan, bunga ularning birlashib harakat qilmaganini sabab qilib ko‘rsatadi. Umuman olganda, “Turk so‘zi” gazetasida shunga o‘xshash turkiy xalqlarni birlikka chakiruvchi maqolalar ko‘plab bosilgan.

Gazetaning “Adabiyot” ruknida berilgan g‘azallar ham publitsistik ruhiyati bilan diqqatga sazovor. Fondda mavjud sonlarning ikkitasida 2 ta g‘azal bor. Ulardan biri “Dorilfunun uchun” deb nomlangan. Muallifi Baxrom Xidris deb ko‘rsatilgan. Ma‘lumki, Mahmudxo‘ja Bexbudiy boshchiligida qator jadid ma‘rifatparvarlari 1918-yilning 12-may kuni “Turkiston xalq dorilfununi”ni ochishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu dorilfunun hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “bobokaloni”dir. Jadidlar yaxshi anglardilarki, millatni uyg‘otishning bosh vositasi ilm-ma‘rifat, dorilfunun esa Turkiston xalqlariga ma‘rifat ziyosini taratuvchi mayoq vazifasini bajarishi kerak edi. G‘azalda xam shu mazmun va maslak aniq ifoda etilgan:

“G‘ofil o‘lmangiz yoronlar, ochilur Dorilfunun,  
Tabriklang, g‘ayrat eting, ilm o‘rganing millat uchun!  
Fan kerak, g‘ayrat kerak, jahd va jadal kilmoq kerak,  
Tashlangiz g‘aflat ila tanballigingiz bus-butun...”

She‘rda o‘tkir nigoh va norozilik alanga olayotganining nishonalari bor. Bunday publitsistik pafosga qaraganda, “Turk so‘zi” milliy talantlarni tarbiyalovchi ijodiy maskanga ham aylangan ko‘rinadi.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Turk so‘zi” gazetasida Muhammad Said, Baxrom Xidrisdan tashqari Tuyg‘un ham o‘z maqolalari bilan ishtirok etib turgan. Gazetada katta hajmdagi, xatto bir necha sonlarga cho‘zilgan maqolalar uchraydi. Masalan, “Turklik jarayoni”, “Fransiya inqilobi natijalari”, “Yashamoq orzusi”, “Yana intizor” kabi maqolalar shular jumlasidan. Gazetaning har soni so‘nggi 4-sahifasi xabarlar uchun ajratilgan. Bu xabarlar “Doxiliy xabarlar” (mahalliy), “Xorijiy xabarlar” (tashqi) tarzida ruknlashtirilgan. Shuningdek, e‘lon va reklamalar ham o‘rin olgan. Fondda saklanayotgan har to‘rt sonida “Xalq dorilfununi” gazetasi chop etila boshlagani va unga obuna bo‘lish shartlari bayon etilgan e‘lon bor. Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki, “Xalq dorilfununi” gazetasi 31-maydan Turkiston xalq dorilfununining nashri afkori sifatida chiqa boshlagan. Demak, bu gazeta hozirgi “O‘zbekiston Milliy universiteti” gazetasining tarixiy negizidir. “Turk so‘zi” bu voqeani ham millat uchun muhim sanab, o‘z sahifalarida muntazam yoritib borishga intilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Turk eli” gazetasi o‘zining qisqa faoliyatida “Turon” va “Kengash” gazetalari uslubi, publitsistik ruhi va yo‘nalishini munosib davom ettirgan. Sahifalarida Turkiston xalqlari hayotining har bir jabhasida yuz berayotgan o‘zgarish va istibdod zulmini teran yoritib borgan. “Turk so‘zi” gazetasi ham Turkistonning 1917-18 yildagi hayotida nimaiki sodir bo‘lsa, bariga munosabat bildirishga, kamchilik va muammolarni olib chiqishga harakat qildi. Gazetalar publitsistikasi va uslubiga ta’sir etgan omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Turkiston xalqlari sillasini quritayotgan Birinchi jahon urushi va uning salbiy oqibatlari, o‘lkada yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul;

- fevral va oktyabr to‘ntarishlari; pirovardida turkiy xalqlar xayotida bo‘lgan o‘zgarishlar, inkiloblarning Turkistonga ko‘rsatgan ta’siri;

- 1917-yil 27-noyabrda Qo‘qonda tashkil etilgan va shu kunni Fitrat “milliy laylatul kadrimiz” deb ulug‘lagan Turkiston Muxtoriyati, uning dastur va nizomlari, muxtoriyat mas’ullarining federatsiya olish uchun sa’y- harakatlari va uning bolsheviklar tomonidan qurolli barbod etilishi;

- 1918-yil 12-mayda Turkiston xalq dorilfununi (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning ochilishi va ish boshlashi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi (1-qism. 1870-1917 qil noyabr). – T.: G‘afur G‘ulom, 2009. – 380 b. Мелибоев А. Публицистикада давр руҳи ва ижтимоий талқин. -Т.: Фафур Фулом, 2011. – 144 б.
2. Sirojiddin Sotvoldiev. (2023). Dictionaries of "musallas" place in arabic lexicography. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356–365.

3. Sotvoldiyev, S. M. o‘g‘li. (2023). Arab leksikografiyasida manzuma musallaslarni tadqiq etishning o‘ziga xosliklari. Innovative development in educational activities, 2(23), 474–478. Sirojiddin Sotvoldiyev Maxammaddin o‘g‘li. (2023). Ibn molik hayoti va uning arab tilshunosligida tutgan o‘rni. Innovative development in educational activities, 2(11), 444–453.
4. Sotvoldiev, S. (2022). Principles of composition of scientific-critical text of ibn sayyid's dictionary "Al-musallas". Thematics Journal of History, 8(1).
5. Sotvoldiyev, S. (2024). Arab matbuotidan tarjimalar tahriri: sarlavha ansambli va iqtiboslar tarjimasiga nisbatan muharrir bahosi. models and methods for increasing the efficiency of innovative research, 3 (30), 42-46